
MUAMMOLAR BARTARAF ETILMOQDA

Tumanimizda aholini sifatli elektr energiyasi bilan ta'minlash, tizimdagi mavjud muammolarni bartaraf etishga alohida e'tibor berilmoqda.

Tuman elektr ta'minoti korxonasi xodimlari tomonidan past kuchlanishli elektr tarmoqlarini yangilash va modernizatsiya qilish dasturiga asosan elektr tarmoqlarini ta'mirlash va rekonstruksiya qilish ishlari jadallik bilan olib borilmoqda.

Aholi xonadonlari hamda ijtimoiy soha ob'yektlarida elektr energiyasi ta'minotini yaxshilash uchun hududlarga yangi tayanch ustunlari keltirilib, qo'shimcha havo tarmoqlari tortilmoqda.

Jumladan, Xo'jaobod MFY Obod ko'chasiga bir dona transformator punkti va 1.5 km tarmoq qurildi, amalda loyiha smeta ishlari bajarilib, 15 dona tayanchlar o'rnatildi, qurilish ishlari davom etmoqda.

Shuningdek, Buvayda MFY hududida bitta TP o'rnatilib, 1.4 km. tarmoq qurildi, 38 dona tayanchlar o'rnatildi, ushbu hududda ham qurilish ishlari davom etmoqda.

2022-12-02 11:33:37